



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




(O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi
Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

3

9 108



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

3 658



Oilaviy korxona

60



Unitar korxona

4 859



Xususiy korxona

21



Aksiyadorlik jamiyati


154



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2019- y. ■ 2020- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

4



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar

5



(1- dekabr holatiga koʻra, birlikda)

Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **31,7 %** ga oshdi



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	942	1 393
Oilaviy korxonalar	401	427
Xususiy korxonalar	320	359
Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	30	29
	■ 2019- y.	■ 2020- y.


■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish

Oʻrmon xoʻjaligi

Baliqchilik xoʻjaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,4 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 252 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili - (o'tgan yilning mos davriga nisbatan) ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 22,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,1 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning - 14,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

7

Jami faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,1 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



770



Binolar va inshootlar qurish

109



Fuqarolik obyektlarini qurish

672



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish korxonalari va tashkilotlari soni 1 551 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ga oshdi.

Jami qurilish korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib— (o'tgan yilning mos davriga nisbatan) binolar va inshootlar qurish – 5,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 49,6 % ni tashkil etadi), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 10,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 43,3 % ni tashkil etadi) fuqarolik obyektlarini qurish – 29,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,1 % ni tashkil etadi) o'sishidir.



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

8

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 191 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 16,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,7 %);

-axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 20,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,7 %);


-noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 25,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,1 %);

-kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 1,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,4 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

9


*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **34,8** % ga oshdi*



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	2 155	2 918
Oilaviy korxonalar	1 091	1 571
Xususiy korxonalar	1 579	2 023
Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	16	25


■ 2019- y. ■ 2020- y.

■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 533 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,8 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 42,6 % ga (jami savdodagi ulushi 75,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 8,2 % ga (jami savdodagi ulushi 16,7 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 33,9 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) o'sishidir.




- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


10

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

272



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

6



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha korxona va tashkilotlar soni 291 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga oshdi.

Jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu:


- sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat- 13,8 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida sohasidagi ulushi 93,5 %);

-yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash- 20,0 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyat 2,1 %) o'sishidir.



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,4 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra tashish va saqlash sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 619 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga oshdi.

Jami tashish va saqlash sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili quruqlikdagi va quvur transportida o'tgan yilga nisbatan – 12,3 % ga (jami tashish va saqlash sohasidagi ulushi 82,4 %);

-ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati o'tgan yilga nisbatan – 34,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,2 %);


-pochta va kuryerlik faoliyati o'tgan yilga nisbatan – 56,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,1 %);

-havo transporti – 2,0 martaga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,3 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5 %** ga oshdi



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar	348	400
Oilaviy korxonalar	338	399
Xususiy korxonalar	468	477
Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	4	3

■ 2019- y. ■ 2020- y.

■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



93

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 186

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 279 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu:


- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 9,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 92,7 %);

- yashash bo'yicha xizmatlarda 25,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 7,3 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 3 819 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 954 taga yoki - 33,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 658 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 844 taga yoki - 30,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 905 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 268 taga yoki - 58,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 9 490 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 111 taga yoki - 28,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 108 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 023 taga yoki - 28,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 170 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 580 taga yoki - 21,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 5 412 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 685 taga yoki - 14,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 859 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 504 taga yoki - 11,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 881 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 701 taga yoki - 44,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020 - yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 239 tani tashkil etib, ulardan 234 tasi yoki - 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 33 taga yoki - 16,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 34 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

16

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


17



Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

18




2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Navoiy shahrida (24,0 %), Zarafshon shahrida (7,7 %), Karmana (15,6 %), Qiziltepa (12,6 %), Xatirchi (12,5 %), Navbahor (9,7 %), Nurota (7,5 %), Uchquduq (4,6 %), Konimex (3,8 %), Tomdi (2,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Navoiy shahrida (18,1 %), Zarafshon shahrida (8,7 %), Xatirchi (14,6 %), Karmana (13,6 %), Qiziltepa (12,9 %), Navbahor (9,5 %), Uchquduq (7,6 %), Nurota (6,6 %), Konimex (5,2 %), Tomdi (3,2 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'grisidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Navoiy viloyati Statistik
regisrlarni yuritish bo'limi**

Tel: 79 223-62-47